

BOLALARNING YOSHIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA O'YIN FAOLIYATINING TUTGAN O'RNI.

*Xovos tumani 1-maktab psixologi
Mustafoqulova Yulduz*

Annotatsiya.

Kichik maktab yoshi o'quvchilarining fikrlashi obrazli bo'ladi. Shu bois ularga kinoya, kesatish samara bermaydi. O'qitish ko'rgazmali qurollar, vositalar yordamida tashkil etilishi kerak. Materialni tushuntirishda uning obrazli, ifodaviy bo'lishiga erishish lozim. Ularning kayfiyatiga o'qishdagi yutuqlari, olgan baholari, shuningdek, amalga oshirgan ijodiy ishlarita'sir qiladi. Shu bois o'quvchi tomonidan unga berilayotgan e'tibor bola uchun alohida qiymatga ega. Uning har bir harakati o'qituvchining e'tiroziga sabab bo'lsa, unda o'qish istagi yo'qoladi.

Kalit so'zi: turg'unlik- nosezgir bo'lishiga mo'ljallangan bo'lishidir, voqeaband-ijroli, harakatli o'yinlar, yo'sinlari- Turmush tarzi, ikkilanuvchilik-xo'ja ko'rsinga qilinadigan harakat qat'iyatsizlik-o'z fikriga, so'zida tura olmaslik

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar turli munosabatlarda bo'lishga intiladilar, o'rtoqlari bilan aloqada turg'unlik yuzaga kelmagan, birgina o'rtoqdankora, ko'pchilik bilan o'ynashni afzal ko'radilar.

O'yinlar xalq pedagogikasining tarbiya vositasidan biri hisoblanadi. Asrlar davomida o'yinlar rivojlanib, yangilanib kelmoqda. O'yin bolalar uchun qiziqarli, mazmunli bo'lishi uchun tarbiyachi o'yin qoidasi bilan yaqindan tanish bo'lishi kerak. O'yin mashg'ulotlaridan voqea band – ijroli o'yinlar orqali bolalar tafakkuri kengayadi va qiziqishlari rivojlanadi. Bundan tashqari "Shifokor", "Sartaroshxona", "Do'konda", "Quruvchilar", "Tikuvchilar", "Bog'cha", "Maktab - maktab" kabi o'yinlar orqali maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar qalbida kasbga qiziqish, faollik, o'zgalarga mehnatiga hurmat, ahil va inoqlilik, shirin suhanlik kabi hislatlar o'stirib boriladi. Bolalar yoshiga mos ertaklardan, rus xalq ertagi "Sholg'om", "Bo'g'irsoq", o'zbek xalq ertagi "Zumrad va Qimmat", "Ikki echki" kabilarni sahnalashtirish, qo'shiqlarni, she'rlarni, hazillarni yod oldirish bola xotirasini mashq qildiradi, fikrni to'plash qobiliyatini, so'z boyligini, nutq faoliyatini, estetik madaniyatini, bolalarda ijrochilik mahoratini, o'ziga bo'lgan ishonch kabi qobiliyatlarni tarkib topishga yordam beradi.

Harakatli o'yinlar bolalardan epcillikni, chaqqonlikni, diqqatni bir joyga jamlashni, sezgirlikni talab qiladi. Xalq o'yinlaridan "Ismingni eslab qol", "Ko'z bog'lagich", "Oq terakmi, ko'k terak", "G'ozlar", "Qushim boshi", "To'p-tosh", "Jami" o'yinlari orqali bolalarda harakat faoliyati rivojlantirilib boriladi, mustaqil faoliyati, jismoniy quvvati oshirilib, o'zligiga ishonch ruhi o'stirib boriladi. Shuningdek turli

o'yinchoqlar bilan uynash tup, arqoncha, ot, arava, velosiped kabilar bilan uynaladigan o'yinlar orqali ular qalbida musobaqalashish hislari uyg'otib boriladi. Ayniqsa to'p o'yinlari bolalarning barcha tana harakatlarini rivojlanishiga katta yordam beradi, shuning uchun to'plar rangi yorqinroq, engil, yumshoq, bolalar uchun o'ynashga qulay bo'lishi kerak. Bolalar bilan sport xonalarida emaklash, sirpanish, tirmashib chiqish, arqon tagidan o'tish mashqlarini o'rgatish va shunga doir quyidagi: "Ona tovuq va jo'jalar", "Arqonga tegmay o'tchi", "Olishish", "Tortishmachoq" kabi o'yinlarni bolalarga o'rgatish orqali ularda ishoraga binoan harakat, jamoa bilan o'ynash, qoidaga amal qilish, chamalash, diqqatni jamlash kabi hususiyatlar tarbiyalanadi.

Tarbiyachi ta'limiy o'yinlarni o'tkazish davomida bola harakatini faollashtiradi, mustaqil harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi, o'yindan to'g'ri foydalanilsa bolaning tafakkuri, nutqi, xotirasi ya'ni, aqliy tarbiyasiga asos solinadi. Ta'limiy o'yinlar orqali bolalar eshitish, kurish, sezish a'zolari orqali turli narsalar va ularni yasashda ishlatiladigan materiallarning xossalarini, ularni bir – biriga taqqoslashni, guruhlariga ajratishni o'rganadilar.

Demak, xulosa qilib aytganda o'yin faoliyatining kichkintoylar hayotida tutgan o'rni beqiyosdir. O'g'il bolalarda o'smirlik yoshi 13-16 qizlarda 12-15 yoshlarni o'z ichiga qamrab oladi. O'smirlik davri o'zining murakkabligi bilan boshqa yosh davrlardan ajralib turadi. Bu davrning eng muhim xususiyati yoshlikdan etuklikka o'tish davridir. Bu davrda o'smir yoshlar tashqi ta'sirlarga beriluvchanligi odamlar diqqat markazida bo'lishga intilishlari, do'stlar orttirishga intilish va kasb tanlashga kuchli ehtiyoj sezishlari bilan ajralib turadi. Ayrimhollarda ulardakuchli arazchanlik, keksaqlash hollarni kuzatishimiz mumkin. Bu kabi noxush his-tuyg'ularni fikrimcha keltirib chiqaruvchi omillar ulardagi tashqi ta'sirlarga beriluvchanligi hamda otanalarning o'smir yoshdagi bolalarga nisbatan keskin talablarning oshishi va o'smirlar bu talablarni hammasiga ham to'liq yechim topa olmaydi. Oqibatda o'ziga bo'gan ishonch xissi keskin pasayadi ikkilanuvchilik, qat'iyatsizlikka xis-tuyg'ularni keltirib chiqaradi. O'smir yoshdagi bolani uzluksiz tanqid qilinsa u o'zini himoyalashga o'tadi va kattalarga taqlid qilishga harakat qiladi lekin buni o'ziga singdira olmaydi.

Uzluksiz tanqid oqibatida u o'ziga bo'lgan ishonchni va irodasizlikka salbiy xis tuyg'ularni keltirib chiqaradi. Shuning uchun o'smir yoshdagi bolalar bilan do'stlashish lozim sabab shundaki u o'zining ichki xis tuyg'ularini aytadi va muammoli vaziyatlarda kattalar bilan fikrlashadi.

O'smir yoshlarni bo'sh vaqtlarini sport yoki boshqa bir mehnat faoliyatiga shuningdek kasb-hunarga yo'naltirish foydali bo'lardi. O'smir bu yosh davrda kelajak rejalarini tuzadi. Bu albatta uning orzu umidlaridan kelib chiqadi, lekin tanlangan kasb har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Misol uchun o'smirning jismoniy holati bunga to'g'ri kelmasligi, yoki kasbning mashaqqatidan bexabarligi, o'smirning xarakteriga tanlangan kasbning mos kelmasligi, sheriklaridan orqada qolmaslik va hakazolardir.

Demak kasb tanlashda o'smir o'zining qiziqishlari, sog'ligi to'g'risida, kasbga taxminiy tayyorgarlikning puxtaligi va psixofiziologik holatini hisobga olish kerak. Faqatgina bitta kasbni tanlash bilan ham cheklanib qolmaslik kerak chunki o'smir oliy o'quv yurtiga kiraolmay qolishi ba'zan turli tashqi va ichki sabablarga ko'ra o'smir dastlabki tanlagan kasb bo'yicha ishlay olmasliklari mumkin. Shunday vaqtlarda o'smirlarda ruhiy zo'riqishlar bo'ladi. Shuning uchun o'smiringa mos tushadigan yana biror kasb tanlash foydadan xoli bo'lmas edi. Xulosa qilib aytganimizda, o'smirning yosh xususiyatlarida bo'ladigan o'zgarishlardan vaqtida xabardor bo'lsak va ularning tarbiyasida loqaydlikka yo'l qo'ymasak, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalana olsak har tomonlama yetuk shuningdek jamiyatga kerakli yoshlarni ko'plab tarbiya qilgan bo'lar edik.

Adabiyotlar.

1. E. G'oziyev "Umumiy psixologiya". Toshkent 2004y.
2. E. G'oziyev "Umumiy psixologiya metodologiyasi". Toshkent 2004y.
3. AvloniyA. Turkiy guliston yohud ahloq. –T.:, «O'qituvchi», 1992.
4. Amir Temur o'g'itlari. –T.:, «Navro'z», 1992.